

ZAMONAVIY OMMAVIY QIRG'IN QUOLLARIDAN HIMOYALANISH.

Isanov Sherzod O'razboyevich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Sirdaryo akademik litseyi chaqiriqqa qadar
boshlang'ich tayyorgarlik (CHQBT) fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ommaviy qirg'in quollari hamda ushbu ommaviy qirg'in quollaridan himoyalaniş haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Qirg'in quollari, dushman, jangovar, talofat, kimyoviy, yadroviy, biologik, vosita.*

QIRG'IN QUOLLARI — dushmanning jonli kuchlariga, qurol-aslahalariga, inshootlariga yalpi (ommaviy) talafot yetkazish uchun mo'ljallangan jangovar vositalar, qirg'in quollari. Jangovarlik (talafot yetkazish, qirgin qilish) xususiyatlariga ko'ra, boshqa barcha jangovar vositalar, qurollardan samaraliroq hisoblanadi. Ommaviy qirg'in quollari jumlasiga bakteriologik (biologik), kimyoviy va yadroviy quollar kiradi. Bu quollar ichida eng katta ziyon va talafot keltiruvchisi, yalpi qiradigani, asorat qoldiradigani, eng dahshatlisi yadro quolidir. Ommaviy qirg'in quollarini ishlatish sharoiti, hududi, miqyosi deyarli cheklan-magan. Hozircha Ommaviy qirg'in quollarining eng katta zaxirasi ikki yirik davlat — AQSH va Rossiya Federatsiyasida jamlangan. Pokiston, Eron, Hindiston, Shim. Koreya, Iroq va b. ba'zi davlatlar Ommaviy qirg'in quollarini ishlab chikarish va zaxira hosil qilish xarakatida. Ommaviy qirg'in quollaridan mudofaa qilish choratadbirlari, umumiy va shaxsiy himoya vositalari ishlab chiqilgan. Ba'zi yirik mamlakatlar (AQSH, Angliya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi va boshqalar.)da aholini Ommaviy qirg'in quollaridan himoya qilish uchun yaxshilab jihozlangan bombapanalar mavjud, fuqaro mudofaasi tizimi tashkil qilingan va vaqt-vaqti bilan mashg'ulotlar o'tkazib turiladi (Bakteriologii qurol, Kimyoviy quollar, Yadro quoli).

Qirgin quollari deganda juda katta vayrongarchilik va yalpi yo'q qilish uchun moljallangan quollar tushuniladi. Bunday quollar qatoriga yadroviy , kimyoviy, biologik quollar kiradi. Qirgin quollari nafaqat insoniyatni va hayvonlarni, balki atrof-muhitni, o'simlik dunyosini, inshootlarni, moddiy boyliklarni shikastlantiradi. Bunda albatta, zararlanish darajasi, qirgin quollarining turiga, xususiyatlariga bogliq. Jumladan, yadroviy quollar tirik mavjudodlarni ham, jamiki inshootlar, texnikalarni ham qattiq shikastlantiradi.

Ommaviy qirg'in quollari urush tizimiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning tarqalishini mustahkamlaydi va sodir bo'layotgan urushlar sayyoramizni yo'q qilish uchun potentsialga ega. Yadro, kimyoviy va biologik quollar, butun shaharlarni va hatto butun hududlarni g'ayritabiiy halokat bilan yo'q qiladigan odamlarni o'ldirish va o'chirish qobiliyatlari bilan ajralib turadi.\

Bakteriologik qurol va bakteriyaviy zaharlanish. Biologik qurollar - bunday qurollar tirik mavjudotlarga kuchli kasallik tarqatish usuliga asoslanadi.

Bakteriologik qurol deganda, bacterial vositalar bilan ta'minlangan har xil qurol, asbob va moslamalar tushuniladi. Bacterial vositalar kasallik tug'diruvchi mikroblar (bakteriyalar, viruslar, rikketsiyalar, zamburug'lar) va bakteriyalardan chiqadigan zaharlar -- toksinlardir. Bu qurolning jangovar xossalari jumlasiga odam va hayvonlarni ko'plab kasallanishi, ta'sir etish vaqtining juda uzoqqa cho'zilishi (kuydirgi kasalligi tug'diruvchi mikroblarning tortishuv formulalari shikastlash ta'sirini bir necha yil saqlab tura oladi), tashqi muhitda mikroblar va toksinlarni payqashning qiyinligi, ta'sir yashirin davrining uzoq bo'lishi, kasallik tug'diruvchi mikroblar va toksinlarning germetik qilinmagan yashirinish joylariga va xonalarga havo bilan birga kirib, ulardagi odam va hayvonlarni zaharlay olish xususiyati kiradi.

Bacterial zaharlanish o'chog'i yuqumli kasalliklar tarqalish manbai hosil qiladigan bacterial vositalarning ta'sirida bo'lgan hududdir. Bacterial zaharlanish o'chog'ining tafsifi va ko'lami dushman tomonidan ishlatilgan bakteriologik qurolning turiga, kasallik tug'diruvchilarning biologik xususiyatlarga va ularning ishlatilish usuliga indikatsiyaning va davolash profilaktik hamda dizenfektsiya tadbirlari o'tkazishning qanchalik samarali ekanligiga bog'liqdir. Bacterial zaharlanish o'chog'ining hosil bo'lishiga materialagik sharoit va joining relyefi ta'sir ko'rsatadi. Bacterial zaharlanish o'chog'i bir nech yuz va bir necha ming kvadrat kilometr maydonni qamrab olish mumkin.

Agar uncha havfli bo'lamagan kasallik tug'diruvchi qo'llanilgan bo'lsa zaharlanish o'chog'ida karantin o'rniga observatsiya e'lon qilinadi. Observatsiya zaharlanish o'chog'idagi odamlarga va shaxsiy tarkibga kuchaytirilgan tibbiy nazorat o'rnatib kasallanganlarni aniqlash va ularni izolyatsiya qilish, ehtiyot emlashtirini o'tkazish, aholi guruhlarining bir-biriga yaqinlashuvni cheklashni ko'zda tutadi. Observatsiya hududiga kirish va undan chiqish n muhim sanoat inshootlarida ishlovchi va ehtiyot emlovlardan o'tkandagina ruxsat etiladi. Observatsiya zonasidan chiqishda barcha fuqarolar va shaxsiy tarkib to'liq sanitar ishlovidan o'tkaziladi. Kasallanganligi gumon qilingan kishilarning observatsiya hududidan chiqishiga ruxsat etilmaydi.

Himoya qilish tadbirlari orasida turar joylarni, hovli va umumfoydalanish. Joylarini doimo ozoda saqlash katta o'rin tutadi. Shaxsiy gigiyena talablarini juda yaxshi bajarish zarur, shaxsiy gigiyena talablari jumlasiga har haftada hammomga tushib, ichki kiyimlarni va yostiq jildlari bilan choyshablarni almashtirish, qo'llarini va sochini ozoda tutish kiyim-bosh poyafzal va boshqalarni har kuni tozalab turish va shu kabilar kiradi. O'ta yuqumli kasalliklarning asosiy manbaidan biri - kasal odamning paydo b'lishi atrofida uchun havflidir, yuqumli kasallikning dastlabki alomatlari payqaldi deguncha, eng yaqindagi davolash muassasasiga xabar berish kerak. Bunday kasallik alomatlari haroratning birdan ko'tirib ketish bosh og'rig'i, et uvishishi, darmon qurishi, ko'ngil aynishi va boshqalardir.

Zamonaviy ommaviy qirg'in quollaridan himoya qilish murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Butun dunyodagi hukumatlar va tashkilotlar ushbu quollar bilan bog'liq xavflarni yumshatish uchun strategiya va texnologiyalarni ishlab chiqishda birgalikda ishlaydi. Himoyalashning ba'zi asosiy yondashuvlari quyidagilardan iborat:

1. Oldini olish: Xalqaro shartnomalar va shartnomalar ommaviy qirg'in quollari (WMD) tarqalishining oldini olishga va ularning ishlab chiqarilishi va tarqalishini cheklashga qaratilgan. Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma (NPT) va Kimyoviy quollar bo'yicha konventsiya (CWC) kabi ushbu kelishuvlar o'z maqsadini qo'llash va saqlashga qarshi global me'yorni yaratishdir.

2. Aniqlash va monitoringi: Kengaytirilgan aniqlash va monitoring tizimlaridan WMD mavjudligini aniqlash va kuzatish uchun foydalaniladi. Bunga potentsial tahdidlarni aniqlash va mos ravishda javob berish uchun sensorlar, kuzatuv tizimlari va razvedka ma'lumotlarini yig'ish kabi texnologiyalar kiradi.

3. Mudofaa va qarshi chora-tadbirlar: ommaviy qurollardan himoya qilish uchun turli xil mudofaa mexanizmlari va qarshi choralar ishlab chiqilgan. Bunga ballistik raketalar qarshi mudofaa tizimlari, kimyoviy va biologik himoya vositalari hamda muhim infratuzilmaga kiberhujumlardan himoyalani uchun kiberxavfsizlik choralari kabi texnologiyalar kiradi.

4. Tayyorlik va javob choralari: Hukumatlar va tashkilotlar ommaviy qurol hujumi ta'sirini minimallashtirish uchun favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va javob rejalariga mablag 'sarflaydi. Bunga xodimlarni o'qitish, mashg'ulotlar va mashqlar o'tkazish hamda samarali javob berish va tiklash uchun protokollar ishlab chiqish kiradi.

Zamonaviy ommaviy qirg'in quollaridan himoya qilish xalqaro hamkorlik, ishonchli ma'lumotlar almashish hamda yangi texnologiyalarni doimiy ravishda tadqiq etish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan keng qamrovli va muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni talab qilishini ta'kidlash muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, 2008 yil
2. O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni, Toshkent, 2002 yil
3. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun "CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'quv dasturi. 2015 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 841-sonli qarori //https://lex.uz

6. Tsui A., Gutek B. A role set analysis of gender differences in performance, affective relationships and career success of industrial middle managers // Academy of management journal. 1984. Vol. 27. N 3. P. 619-635